

Olimlar, tadqiqotchilar, ilm shaydolari va til muxlislari!

Xabaringiz bormi, yo'qmi: "Qadring baland bo'lsin, ona tilim" an'anaviy tanlovi bu yil o'zbek tilini rivojlantirishga doir ilmiy faoliyatni rag'batlantirish maqsadida "O'zbek tilini rivojlantirishga doir eng yaxshi ilmiy-amaliy loyiha" nominatsiyasini ham e'lon qilgan.

Ilmiy ishlanmalaringiz, loyihalaringiz, monografiya, taqdimot va boshqa shu yo'nalishdagi natijalaringizni tanlovga yuboring. Bu nafaqat biron sovg'alik bo'lish, balki, eng avvalo, sizni olim, tadqiqotchi sifatida keng maydonga chiqishingiz va e'tirof qozonishingiz uchun bir imkoniyat.

Tanlov Innovatsion rivojlanish vazirligi, Vazirlar Mahkamasining Ma'naviyat va davlat tilini rivojlantirish masalalari departamenti hamda O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi bilan hamkorlikda o'tkazilmoqda.

Tanlovga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar til-tanlov@mininnovation.uz elektron pochta orqali joriy yilning 31 iyuliga qadar faqat elektron shaklda qabul qilinadi.

Tanlov bilan bog'liq masalalar bo'yicha Innovatsion rivojlanish vazirligining qo'llab-quvvatlash xizmati: +99871 203-32-23 (232).

Batafsil: <https://mininnovation.uz/uz/competitions/3174>